

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARGA QULAY VA TO'SIQSIZ MUHIT YARATISH SOHASIDA QONUNCHILIK MASALALARI

Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya
milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya boshlig'i,**

E-mail: kh.kutpiddinov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18386745>

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqsiz muhit yaratish sohasidagi qonunchilik hujjatlari hamda ularning amaliy ijrosi tahlil qilinadi. Tadqiqot predmeti sifatida nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy infratuzilma obyektlari, transport vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xizmatlardan moneliksiz foydalanishini ta'minlashga qaratilgan normalar o'rganildi. Maqolaning maqsadi — sohada qabul qilingan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini yoritish, davlat nazorati va javobgarlik mexanizmlarini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda statistik ma'lumotlarni umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Natijada sohada huquqiy baza izchil rivojlanib borayotgani, biroq to'siqsiz muhit talablarining amaliyotga to'liq joriy etilishi bo'yicha qo'shimcha nazorat va samarali ijro mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, to'siqsiz muhit, ijtimoiy infratuzilma, shaharsozlik, transport qulayligi, davlat nazorati, ijtimoiy inspeksiya, moslashtirish.

1. Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida "ijtimoiy davlat" tamoyillarini kuchaytirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini xalqaro standartlar darajasida kafolatlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonda "to'siqsiz muhit" konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, u shaharsozlik, transport, davlat xizmatlari, axborot tizimlari va jamoat infratuzilmasini kompleks moslashtirishni talab qiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash hamda ularning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish zamonaviy ijtimoiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishdagi dolzarblikning yana bir sababi shundaki, to'siqsiz muhit yaratish nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslar uchun, balki keksalar, vaqtincha sog'lig'i cheklangan fuqarolar, bolali oilalar kabi boshqa qatlamlar uchun ham qulaylik yaratadi. Demak, to'siqsiz muhit – jamiyatning barcha a'zolari uchun universal qulaylik va xavfsizlik mezonidir.

Mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarga to'siqsiz muhit yaratish sohasidagi qonunchilik bazasini tahlil qilish, huquqiy mexanizmlarning amaliy samaradorligini baholash hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni asoslashdan iborat.

Maqolada quyidagi masalalar yechimi yoritiladi:

– to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha milliy qonunchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari;

- shaharsozlik va qurilish sohasida moslashtirish talablarining huquqiy mazmuni;
- transport va yo'l infratuzilmasida qulaylikni ta'minlash mexanizmlari;
- axborot-kommunikatsiya tizimlarida imkoniyatlarni kengaytirish;
- davlat nazorati va javobgarlik tizimining rolini baholash;
- statistika asosida dolzarb holat va istiqboldagi vazifalarni belgilash.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi ilmiy adabiyotlarda "inklyuziv jamiyat", "universal dizayn", "teng imkoniyatlar" tushunchalari muhim o'rin tutadi.

Xalqaro yondashuvlarda to'siqsiz muhitning asosiy mezonlari – shaxsning jismoniy holatidan qat'i nazar, xizmatlar va obyektlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishidir.

O'zbekistonda mazkur masala bo'yicha normativ-huquqiy bazaning mustahkamlanishi 2020-yildan keyingi davrda yanada jadallashdi.

Ayniqsa, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi, Konvensiyaning ratifikatsiyasi hamda shaharsozlik normalarining yangilanishi to'siqsiz muhit konsepsiyasini huquqiy jihatdan aniq belgilab berdi.

Shu bilan birga, ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, amaliyotda muammolar ko'pincha normaning mavjudligida emas, balki uning ijrosi, obyektlarni moslashtirish sifati, nazoratning yetarliligi va javobgarlik mexanizmlarining qo'llanishida yuzaga keladi.

2. Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri 2020-yil 10-oktabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonun hisoblanadi.

Mazkur Qonun nogironligi bo'lgan shaxslarning binolar, inshootlar, transport, axborot va aloqa vositalari, shuningdek, boshqa obyektlar hamda xizmatlardan boshqa fuqarolar bilan teng foydalanishini ta'minlash bo'yicha huquqiy kafolatlarni belgiladi.

Qonunda obyektlar va xizmatlarning qulayligi quyidagilar orqali ta'minlanishi qayd etildi:

- loyihalashtirish va qurilish jarayonlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini inobatga olish;
- yangi qurilish loyihalarida moslashtirishni majburiy talab sifatida belgilash;
- rekonstruksiya va ta'mirlash jarayonlarida ham to'siqsiz muhit standartlarini tatbiq etish;
- transport, axborot-kommunikatsiya tizimlari va aloqa vositalarini moslashtirish.

Qonunda, shuningdek, jamoat binolari va inshootlarini loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilishda nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlari inobatga olinishi, avtotransport saqlash joylari, liftlar, kirish-chiqish yo'laklari, sanitariya-gigiyena shoxobchalari kabi infratuzilma elementlari moslashtirilishi shartligi belgilangan.

Mazkur normalarning amaliy ahamiyati shundaki, to'siqsiz muhit masalasi qurilish obyektlarining "qo'shimcha elementi" emas, balki loyiha va foydalanishga topshirish jarayonining majburiy qismi sifatida mustahkamlandi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- normativ-huquqiy tahlil: qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, shaharsozlik normalari mazmuni o'rganildi;
- tizimli yondashuv: to'siqsiz muhitni shaharsozlik, transport, axborot, davlat xizmatlari zanjiri sifatida baholash;

– statistik tahlil: nogironligi bo‘lgan shaxslar soni va tarkibi bo‘yicha ko‘rsatkichlar umumlashtirildi;

– institutsional tahlil: Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Ijtimoiy inspeksiya vakolatlari huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Tadqiqot obyektlari sifatida quyidagilar tanlandi:

1. Ijtimoiy infratuzilma obyektlari (turar joylar, davlat idoralari, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, sport, madaniyat obyektlari);

2. Shahar va qishloq transporti, temir yo‘l, metro, aeroportlar;

3. Yo‘l infratuzilmasi (chorrahalar, piyodalar yo‘laklari, o‘tish joylari);

4. Axborot va aloqa vositalari, rasmiy veb-saytlar;

5. Ekspertiza va nazorat tizimi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlar natijasida nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘yicha ma‘lumotlar aniq raqamlarda aks eta boshladi. 2026-yil 1-yanvar holatiga respublikada nogironligi bo‘lgan shaxslar soni 1 060 111 nafarni tashkil etib, 2025-yil 1-yanvar holatidagi 1 020 757 nafarga nisbatan 39 354 nafarga yoki 3,9 foizga oshgan.

Tarkibiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarning 579 754 nafari (54,7 foiz) erkaklar, 480 357 nafari (45,3 foiz) ayollarni tashkil etadi. Nogironlik guruhi bo‘yicha II guruh ulushi 710 434 nafarni (67,0 foiz) tashkil etadi.

Shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalar soni 170 413 nafar (16,1 foiz) ekani ham to‘siqsiz muhit masalasining ta‘lim, madaniyat va bolalar infratuzilmasida alohida e‘tibor talab qilishini ko‘rsatadi.

Mazkur ko‘rsatkichlar to‘siqsiz muhit yaratish masalasi jamiyatning kengroq qamrab oladigan, uzoq muddatli strategik yo‘nalish ekanini tasdiqlaydi.

To‘siqsiz muhit yaratish bo‘yicha normativ bazaning rivojlanishida 2021-yil 23-maydan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Shaharsozlik kodeksi muhim o‘rin tutadi. Unda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan moneliqsiz foydalanishi shaharsozlik faoliyatiga doir asosiy talablar qatoriga kiritildi.

Bundan tashqari, 2021-yil 7-iyulda “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida”gi O‘RQ–695-son Qonun qabul qilinishi O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlarini mustahkamladi. Bu hujjat nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy tizimga integratsiya qilishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

2023-yil 1-maydan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar, jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari davlat himoyasida ekani, davlat ularning turmush sifatini oshirish, jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, shuningdek, axborotni to‘siqsiz olish imkoniyatini ta‘minlashi belgilandi.

Mazkur konstitutsiyaviy kafolatlar “ijtimoiy davlat” tamoyilini amaliyotga yo‘naltirishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF–82-son “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon bilan ijtimoiy himoya tizimining yangi boshqaruv modeli joriy etilib, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda tuman (shahar)larda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Ushbu institutlar ijtimoiy xizmatlar sifatini

oshirish, manzilli yondashuvni kuchaytirish va nazorat tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarga to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha normativ-huquqiy baza so'nggi 3 yilda yanada takomillashdi. Ayniqsa, qurilish jarayonlarida moslashtirishni majburiy talab sifatida belgilash, obyektlarni foydalanishga qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini nazarda tutish, transport va yo'l infratuzilmasida qulayliklarni joriy etish ijobiy baholanishi lozim.

Shu bilan birga, quyidagi muammoli jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim:

- normativ talablar mavjud bo'lsa-da, ayrim obyektlarda moslashtirish sifati yetarli darajada bo'lmasligi;
- pandus va yo'laklar shaharsozlik normalari va qoidalariga mos bo'lmasligi, ulardan foydalanish qiyinligi;
- jamoat transport vositalarida maxsus uskunalarning sozligi va doimiy ishlash holati muammosi;
- to'siqsiz muhit elementlarining "hisobot uchun" bajarilishi kabi muammolar mavjud.

Shu sababli to'siqsiz muhit yaratish jarayonida nazoratning kuchli bo'lishi, mas'uliyatning aniq belgilanishi va aniq natijaga yo'naltirilgan yondashuv zarur.

Tahlil jarayonida to'siqsiz muhit yaratish sohasida quyidagi tizimli muammolar mavjudligi aniqlandi:

1. Hududlar kesimida nomutanosiblik – ayrim joylarda moslashtirish ishlari yuqori sur'atda amalga oshirilsa, ayrim hududlarda sekin kechadi;
2. Rekonstruksiya obyektlarida murakkablik – eski binolarni moslashtirish qo'shimcha xarajat va texnik yechimlarni talab qiladi;
3. Transport tizimidagi muammolar – bekatlar, yo'nalish ko'rsatkichlari, maxsus joylar, axborot tablolari hamma joyda bir xil darajada emas;
4. Axborot qulayligi masalasi – rasmiy veb-saytlarda maxsus funksiyalar joriy etilayotgan bo'lsa-da, ularning to'liq va barqaror ishlashi doimiy nazoratni talab qiladi.

Ushbu muammolarni hal qilishda normativ bazani yanada takomillashtirish bilan bir qatorda, amaliy ijroni kuchaytirish, monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish muhim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha amaliy mexanizmlarni kuchaytirishda muhim hujjat bo'ldi.

Unga ko'ra, shaharsozlik obyektlarining shaharsozlik hujjatlari loyihalarining texnik qismi to'siqsiz muhit yaratishga oid talablar muvofiqligi yuzasidan majburiy ekspertizadan o'tkazilishi belgilandi.

Mazkur mexanizmning amaliy natijasi sifatida 2025-yil davomida shaharsozlik ekspertizadan o'tgan 8 118 ta loyiha 7 826 tasi (96 foiz) to'siqsiz muhit yaratishga oid texnik qismi bilan ekspertizadan o'tkazilgani bo'ldi. Bu ko'rsatkich moslashtirish talablari loyiha bosqichidanoq joriy etilayotganini anglatadi.

Shuningdek, Ichki ishlar vazirligining "Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" jamg'armasi mablag'larining bir qismini chorrahalarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun xavfsiz va to'siqsiz muhit yaratishga yo'naltirish talabi ham muhim.

2025-yil davomida 18 ta chorraha moslashtirilgani hamda 1 025 ta ovozli qurilmalar o'rnatilgani bu yo'nalishda real ishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Hududlarda kamida bittadan ko'chani moslashtirish bo'yicha talab ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ayrim hududlarda ishlar 90–95 foizga yetgani, ayrim hududlarda esa 50 foiz atrofida ekani qayd etiladi.

Bu holat moslashtirish ishlarini yakuniy natijaga yetkazish bo'yicha hududiy boshqaruvni kuchaytirish zarurligini bildiradi.

Shahar, shahar atrofi, shaharlararo (Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar ichida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlararo) avtobusda yo'lovchi tashish yo'nalishlarida xizmat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari hamda I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning shaxsiy avtotransport vositalarini nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirish xarajatlarini qoplash mexanizmi ham ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning muhim turidir.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-iyundagi 377-son "Avtotransport vositalarini nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirish xarajatlarini qoplash bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan ushbu xizmatning ma'muriy reglamenti tasdiqlangani moslashtirishni amaliy rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Nazorat tizimining kuchaytirilishi doirasida Ijtimoiy inspeksiya tashkil etilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-268-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi to'g'risidagi hamda Agentlik huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qaror bilan uning vazifalari belgilandi. Ijtimoiy inspeksiya to'siqsiz muhit yaratish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish, xizmatlar sifati va standartlarga rioya etilishini tekshirish, shuningdek, Konvensiya talablari bajarilishini monitoring qilish vakolatlariga ega bo'ldi.

Shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar orqali moslashtirish talablarini buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Xususan, shaharsozlik hujjatlarida to'siqsiz muhit bo'limi mavjud bo'lmagan holda ijobiy xulosa berish yoki moslashtirish talablariga amal qilinmagan obyektlarni foydalanishga ruxsat berish jarayonlarida jarima choralarining belgilanishi ijro intizomini oshirishga qaratilgan.

3. Xulosa

O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarga to'siqsiz muhit yaratish sohasidagi qonunchilik so'nggi yillarda izchil rivojlanib, kompleks huquqiy tizimga aylangani ilmiy jihatdan asoslandi. 2020-yilgi O'RB-641-son Qonun mazkur yo'nalishdagi asosiy kafolatlarni belgilab bergan bo'lsa, keyingi yillarda Shaharsozlik kodeksi, Konstitutsiyaviy normalar, Konvensiya ratifikatsiyasi, Prezident Farmon va qarorlari orqali amaliy mexanizmlar kuchaytirildi.

Shu bilan birga, to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha normativ talablarni amaliyotga to'liq tatbiq etish, obyektlarning foydalanish imkoniyatini oshirish, transport va yo'l infratuzilmasini moslashtirish, axborot qulayligini kuchaytirish hamda nazorat tizimini yanada samarali qilish zarur.

Ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Moslashtirish ishlarining yakuniy natijadorligini baholash uchun hududiy reyting va ochiq monitoring tizimini joriy etish;

2. Shaharsozlik obyektlarida moslashtirish talablarining bajarilishi bo'yicha foydalanishga topshirilgandan keyingi nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;
3. Jamoat transporti vositalarida maxsus uskunalar va xizmat sifati bo'yicha doimiy tekshiruvlarni tizimli amalga oshirish;
4. Davlat organlari veb-saytlarida maxsus imkoniyatlar (kontrast, shrift kattalashtirish, ovozli funksiyalar)ni barcha idoralarda to'liq joriy etish;
5. Moslashtirish talablarini buzganlik uchun javobgarlikni qo'llashda "profilaktika + qat'iy choralar" mexanizmini tatbiq etish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida (O'RQ-641-son).
2. O'zbekiston Respublikasi. (2021). Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida (O'RQ-695-son).
3. O'zbekiston Respublikasi. (2021). O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi (yangi tahrir).
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (PQ-74-son).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida (PF-82-son).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (PQ-266-son).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi to'g'risidagi hamda Agentlik huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida (PQ-268-son).
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2025). Avtotransport vositalarini nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirish xarajatlarini qoplash bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida (377-son).
10. United Nations. (2006). Convention on the Rights of Persons with Disabilities.
11. World Health Organization. (2011). World Report on Disability.
12. World Bank. (2018). Disability Inclusion and Development.
13. UNESCO. (2020). Inclusive Education and Disability Policy Guidance.
14. International Organization for Standardization. (2019). ISO guidelines on accessibility and inclusive design.